

YULDUZ O'RMONOVA

UYG'OQQ YULDUZLAR



SHE'RLAR

OS-80
897

• BIRINCHI KITORIM •




O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

YULDUZ O'RMONOVA

YIG'OOQ YULDUZLAR

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DARYA PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

821
Q-80

-1019-

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

--	--

20
2020

SHOIRLIK QISMATI

Avvallari "She'riyat – taqdirim, manglayim-ga azal bitilgan qismat" kabi iqrorlarni jinim suymasdi, g'ashim kelib, ensam qotardi. Mana, endi qosh oqartib o'ylab qarasam, shu iddao-dayam jon borgan o'xshab turibdi. Avvalosi, chin shoirlarni zamon, davr, sharoit shakllantirar ekan, ya'nikim, muhit taqozo qilsa, turmush ehtiyoji bo'lsagina iqtidor iste'dodga aylanarkan. Shu bois dunyoqarashni o'zgartirib, tafakkurni tarbiyat etadigan ulug'lar doim ham yaralaver-maydi, nazarimda.

Buyuk ehtiyoj bo'lmasa, bandasi ming chirangani bilan shoirlik rutbasiga yetolmaydi, mohiyat kasb etmaydi, qancha bozorga solsin, qiyofasi mumdan yasalgan olmadek istarasiz qolaveradi.

Yulduz O'rmonova ko'p yillardan beri adabiyot muhibi bo'lib yuribdi. Men uning irodasiga, mehnatkashligiga qoyil qolganman. Shu qat'iyati badaliga Zulfiya mukofotiniyam qo'lga kiritdi. Balli, deysanki, shundan keyin ham to'xtamadi: ingliz tilini puxta o'rganib, binoyidek tarjima bilan shug'ullanyapti. Kamol kasb etgandirki, xudo rutba bergan ustozlar asarlarini o'zbekchadan inglizchaga ag'daryapti.

Nashr uchun mas'ul:

G'ayrat MAJID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

o'rinbosari

Mas'ul muharrir:

Iqbol MIRZO

Yulduzning she'rlari o'quvchini go'yo yulduzlarning sirli olamiga yetaklaydi, yonadi-kuyadi, kishiga samimiy, mehrga limmo-lim tuyg'ular va ziyoga to'la nur ulashadi, ammo baribir dildagi inja sir-asrorlarini ochib tashlayver-may sirli sandiqda saqlab qolaveradi va shunisi bilan ayollarga xos hayo pardasi ortidan turib kishini o'z jozibasiga maftun etadi.

Ushbu mo'jaz kitobchani o'qib qaynoq mehri, nafosat va nazokatga o'ralgan muhabbatni his etasiz.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6473-2-9

© Y. O'rmonova, 2020

© "Adabiyot", 2020

O'ziga talabchanligini qarang, tengdoshlaridan farqli, birinchi kitobga endi jur'at topibdi. Umid qilamizki, Yulduz izlanishdan tolmaydi, mehnatdan qochmaydi, oqibat, Tangri yorlaqab, el manglayida Cho'lpondek charaqlash toleyini ato etadi.

Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri.

BAG'ISHLOV

Momom so'zlaridan ko'ksim
Tag'in bo'yi rayhon bo'ldi.
Yuragiga qo'l solgandim,
Barmoqlarim alvon bo'ldi.
Bobom yo'llaridan yurib
Barmoqlarim ayon bo'ldi.
Ona sharq uyg'otdi ruhim,
Manzil ko'ngil tomon bo'ldi.

Ham yonar, ham yondirar teng,
Tutsam muhabbat xomasi.
Ko'zga surtildi yoqa-yeng,
Sadoqatimning jomasi.
Bir yurt borki, u yurtda men
Topdim yulduzlar nomasin.
Oyog'im yerdan uzilmay,
Mudom boshim osmon bo'ldi.

Shamshir uxlar asotirda,
Zabonlardir endi tig'day.
Tomirlarda qon-la birga
Yashash hissi oqar cho'g'day.
O'xshab go'yo oltin qirga,
O'sib borar xirmon, bug'doy.
Odamlarning orasida
Mehr obi ravon bo'ldi.

Ishq debon bosh ko'targan bir
Jannatdagi chashmadirman.
Mehrdirman boshdan-oxir,
Muhabbatga tashnadirman.
Sadoqatga mudom qodir
Oshiqlarga oshnodirman.
Yuraklarni bosgan xazon
Bo'ston o'zga bo'ston bo'ldi.
Mening-chun zamin-u osmon
Bu kun O'zbekiston bo'ldi...



YER HAQIDA SHE'R

Tog'lar samo sari intilgan tuproq,
Aytolmas dardining ro'yi-rostini.
Yashasak shod bo'lar har nedan ko'proq,
Oyoq'osti qilmay oyoq ostini.

U o'zidan boshqa har nega malham,
Mehri ilohiy bir nur-la o'ralgan.
Ishq urug'in sochgan Odam Ato ham
Oydan yaralmagan, loydan yaralgan.

Quyosh kuydirmagan ko'ksini nogoh,
Olov yoqsa sabrim yoqar birma-bir.
Zarradek yoriqqa nigoh tushsa goh,
Yurak jimirlaydi chekkanday jabr.

Olis yo'l turibdi mening oldimda,
Ildizdan uzilmay, bulutlar oshay.
Bir baxt ber, Xudojon, sening oldingda
Yer yuzini yerga qaratmay yashay...

Mangu samolarga qanot yoyguvchi
Sorday avaylasak O'zbekistonni.
O'zdan-da qizg'onib, yonib suyguvchi
Yorday avaylasak O'zbekistonni.

Bu zamin bag'riga yulduzlar bo'ylar,
Mudom muhabbatga to'lur dil uylar,
Ko'ngilda toabad mehrni kuylar
Torday avaylasak O'zbekistonni.

Abad qalbi uyg'oq yotgan mardlarga,
Dillarda uyilgan asriy gardlarga,
Yurakni jizg'anak qilgan dardlarga
Korday avaylasak O'zbekistonni.

Unutilmagay hech so'zlarimiz ham,
Mangu muhrlangay izlarimiz ham,
Kunday yorug' bo'lgay yuzlarimiz ham,
Orday avaylasak O'zbekistonni...

TOSHKENT

Sog'inch dardi bag'rinni tilsa,
Azob o'tin sovutar Toshkent.
Ketaman deb xarxasha qilsa,
Yuragimni ovutar Toshkent.

Bu ayriliq yolg'on bo'lsa ham,
Shirin so'zga moyil qilarkan.
Bu kent, bu iztirob va bu g'am
Qishloq ko'nglin shoir qilarkan.

Uzun va tor chang ko'chalarda
G'ubori yo'q keng dillar o'sar.
Katta-katta, keng ko'chalarda
Yo'llarimni xavotir to'sar...

Qishloqqa xos asli soddalik,
Unga jimlik, yolqin yarashar.
Yuragingga solsa ham hadik,
Shahar'larga shovqin yarashar...

Shoshga shoshib kelgan kunimdan
Tushlarim ham bir-bir keldi o'ng.
Poytaxt bergan sog'inchlarimdan
Andijonni topib oldim so'ng...

OROL DENGIZIGA

Meni olib qochar xayol dengizim,
 Qachon zavol topar savol dengizim?
 Qurib ketsin toqat, qurib ketsin dard,
 Faqat qurimasin Orol dengizim...
 Ko'ngil to'lmay, ko'ksim to'lib ketmoqda,
 Sabr kosam chil-chil bo'lib ketmoqda!
 Tengsizimni desam tengdosh bardoshlar,
 O'lib ketay agar, o'lib ketmoqda...
 Yana uyg'on++gaydir qayqlarimiz,
 Hali qaytib kelgay baliqlarimiz.
 Orolim, Orol lim bo'libdi derlar,
 To'lar yurakdagi ariqlarimiz.
 Bag'ringda tin olar jonli kemalar,
 Ular asli buyuk, shonli kemalar.
 Qabriston emassan,
 Qadristonsan sen!
 Hayrat-u hasratga konli kemalar...
 Dunyo kulib boqqay, bir bor kulgin-da,
 Ko'kdan rang olib, ko'k
 Dengiz bo'lgin-da.
 Yig'lasam maylimi?..
 Kuysam maylimi?..
 To'lib ketdim axir... sen ham to'lgin-da...
 To'lqinlar jonlanar bag'ringda hali,
 Yolqinlar tovlanar bag'ringda hali.
 Xudo haqqi!
 Xudo xohlasa, albat,

Baliqlar ovlanar bag'ringda hali...
 Xushxabarlar aytgay sening daraging,
 Qanotlar yozadir ul kun kuragim.
 Shamolday yelaman shundan so'ng faqat,
 Eng baland yelkaning bo'lgay yuragim.
 Eng baland yelkaning bo'lgay yuragim...

BIR BAHORKI

Bir bahorki, ko'zlarda yonib,
 Ko'z ochgan bir hisga o'xshaydi.
 Yo so'zlari yulduzday yoniq,
 Oshig'i ko'p qizga o'xshaydi.
 Maysalarning shivirida kuy,
 Yangraganda borliq tinglagay.
 Bugun hamma kuylaydi shu ko'y -
 Muhabbat qo'shig'i tinmagay.
 Yer-u ko'kda ko'klamning ko'rki,
 Kurtak yozar sevgi, hayajon.
 Bir bahorki, o, bir bahorki,
 Go'yo endi ketmas hech qachon.
 Uning ismi yurakda tanho,
 U bor, qalbdan yoshlik arimas.
 U ko'ngilday ulg'ayar, ammo
 Qarimas!

TOG'

Qancha umr ko'rsa ham,
Tog' bo'lib o'tarkan tog'.
Muazzam g'ururini
Sarafroz tutarkan tog'.
Qora bulutlarni ham
Boshida ko'targan tog'.
Qorlardan bosh ko'tarib,
Ko'klamda ko'kargan tog'.

Ko'ksi to'la haqiqat,
Moziyga guvohdir u.
Ko'kargan maysa borki,
Bag'rida giyohdir u.
O'ziga shoh-u sulton,
O'zgaga panohdir u.
Toshlar yumalar – toqqa
Hasratin to'karkan tog'.

Tog'lar go'zal, olisdan
Tag'in husni oshiqdir.
Befarq bo'lolmas kimsa,
Necha ko'ngil oshiqdir.
Ammo ming xil odamzod
Hamda ming xil oshiqdir.
Lek bir ko'kka talpinib,
Osmonni o'parkan tog'.

Cho'ponlarning kuylari
Tog'lar hayotidandir.
Chin oshiqlar saboti
Tog'lar sabotidandir.
Balki o'lmas insonlar
Tog'lar avlodidandir...
Yergamas, cho'ksa gar o'z
Qa'riga cho'karkan tog'.
Qancha umr ko'rsa ham,
Tog' bo'lib o'tarkan tog'.



Avtobusning tiniq oynasi
Meni ming manzilga eltadi.
Salqin sabolarga aylanib,
Xayol esa senga ketadi...
Shabnam ko'zlaringday musaffo,
Dunyo senday kulib boqadi.
Kimga tortdim, bilmayman, ammo
Yurak mudom senga tortadi...
Bag'ri o'yiqlik keksa daraxtlar,
lymanib bosh chayqagan mayssa -
Barglarida shudring yaraqlar,
Seni yodga solar, jilmaysa...
Meni olib qochdi shodumon
Daydi xayol va daydi orzu.
Yuragingni sog'indim yomon,
Diydoringga to'ysaydim bir zum...
Har kech yana eslayman takror,
O'ylayman-da, dunyo bir kamdir.
Senda ham barq urmoqda bahor,
Ayni zamon qosh qoraygandir...
Tag'in eslatadi bu oqshom,
Egam sog'inchingdan qo'ymasini.
Seni yodga solar, Andijon,
Avtobusning tiniq oynasi...

O'CHIRG'ICH

Qanday yashashgan ekan
Qadimdagi odamlar,
Hali o'chirg'ich degan
Narsa bo'lmagan damlar?

Yozishgandir bexato
Nazarimda, u paytlar.
Yozishmagandirlar yo
Oshiqlar ishqiy baytlar?..

Yo'q! Asli qadimdan ishq
Har qalbgaga soya tashlar.
Bunga guvohdir bag'ri
O'yilgan qoya toshlar.

O'sha yozuvlar hanuz
Yo'qolmagan, ko'chmagan.
Qancha qor-yomg'irlarning
Ostida ham o'chmagan!..

Dunyo o'zgargan sayin
O'zgardi butkul zamon.
Bugun hamma narsaga
Topiladi bir imkon.

Qog'oz qoralab tunlar
Qalb qushim uchiraman.

She'r to'kilar qalamdan,
Yoqmasa o'chiraman...
Sharob rangi ketadi,
Ketar siyoh dog'i ham.
Ketarmikin, akajon,
Dilda dog' qoldirsa g'am?..
O'tmishda xato bisyor,
Ko'ksimda alam g'ij-g'ij.
Bormikan xotirani
Tozalovchi o'chirg'ich?..

SOG'INCH

Ko'zlarimga in qurvolgan
Bedorlikning sharpasi.
Kiprigimda yaltiraydi
Sog'inchimning sarposi.
Yurak yonar, kuyar ko'ksim,
Aytolmay ovoraman.
Sizga borar yo'llarimga
Qaytolmay ovoraman.
Boshimda charx urar ming o'y,
Qay birini o'ylayin?
Sizga aytar so'zlarim mo'l,
Qay birini so'ylayin?..
Bittagina yuragimda
Ming bitta dard va sitam.
Sabr degan sariq oltin
Esa qolgan bir tutam...
Bardoshsizlik degan qudrat
Bo'lib olgan hamsoya.
Axir qiyin ekan sizni
Sog'inib yashash, aya...

-5101-



TURNALAR

Hilol, hilol turnalar,
 Parishonhol turnalar.
 Mening sokin ko'ksim-o
 Nechun buncha tirnalar,
 Nedan shuncha turlanar?

Bisyor savol, turnalar.

Hijronga botdi qalam,

Bo'g'zimda qotdi alam,

Alamga botdim, alam,

Meni uyg'otdi qalam,

Shudir ahvol, turnalar:

Hovuchim to'la sirishk,

Ko'zimdan to'kilar ishq,

So'zimdan to'kilar ishq,

Unutish - og'ir yumush,

Kelgay malol, turnalar.

Uyg'oq yulduzlar bir-bir

Ko'nglimga to'kiladir,

Yo'limga to'kiladir.

Bo'lmasin hech bir mehr

Zinhor uvol, turnalar.

Ko'kka qoshday o'sdingiz,

Goh shamolni to'sdingiz.

Bugun shoir do'stingiz,

Bu kun oshiq do'stingiz -

Aftodahol, turnalar.

Otlaning olis safar,

Yulduz O'RMONOVA

Quloch yozing tong sahar.

Bedaragimdan xabar

Olib qolsangiz agar,

Ayting darhol, turnalar!

Qayting darhol, turnalar!

Parishonhol turnalar,

Hilol, hilol turnalar...

YOMG'IR

Saboga evrilib yuribman,

Qanotlar yozmoqda kuragim.

Jimgina kuzatib turibman,

Shig'alab yog' moqda yuragim...

Odamlar, qochinglar; chopinglar,

Loy bo'lib ketmasdan yo'lingiz.

To'kilib ketyapman butunlay,

Shalabbo bo'lmasin ko'nglingiz...

U MENMIDIM, U SENMIDING?

Qay dildaki ajab dedim,
 Ishq shamoli esmagan.
 U senmiding, u menmidim,
 Ko'klamda kuz eslagan?

Hayron ketdim, qay yon ketding,
 Yurakni bir kezmagan.
 U menmidim, u senmiding,
 Muhabbatni sezmagan?

Bugun butun koinot jim,
 Bizdan ko'zin uzmagan.
 Ayt, senmiding, yo menmidim,
 O'zni qalbga yuzlagan?..

Tengsizlikka yo tengmiding,
 Rangsiz so'zlar so'zlagan.
 U menmidim, u senmiding,
 Ayt, havoyi bo'zlagan?

Ishq-ku yo'qlab kelgan edi,
 Bilmam, neni ko'zlagan.
 U bizmidik, u kim edi,
 Qaytib ketgach izlagan?..

Ishq bog'i degan jannat
 Zog'lanib ketdi, hayhot.
 Pok yurak, pok muhabbat
 Dog'lanib ketdi, hayhot.

Ko'zlaring - dengizlaring,
 So'zlaring - tengsizlaring,
 Qayga mensiz izlaring
 Bog'lanib ketdi, hayhot?

Soyang sodiq soqchidir,
 Qaroshing qaroqchidir,
 Nimadir demoqchiday
 Chog'lanib ketdi, hayhot.

Nigohlar, bu - ovchilar,
 Dilga o't qalovchilar,
 Seni qoralovchilar
 Oqlanib ketdi, hayhot.

Oqibat... Bilmadikki,
 Bir vafo qilmadikki,
 Mehr irmog'i ikki
 Yoqlanib ketdi, hayhot!..

Tong, bu - sen, sen, bu - tong, munis va yorqin,
 Yer-u osmoningni teng uyg'otasan.
 Sahardan saharroq ko'z ochib sokin,
 Ona sharq quyoshin sen uyg'otasan.
 Vaqt hayot umrin yutmoqdadir, deb,
 Undaysan har dardni yengib o'tishga.
 Seni buyuk ishlar kutmoqdadir, deb,
 Bolang kuzatasan ishga, o'qishga.
 Yuraging - shodarang samoga egiz,
 Tengsiz tuyg'ularing cheksiz va jo'shqin.
 Har tong menga peshvoz chiqar ming dengiz,
 U - mehrdengizda keladi jo'shgim.
 Bag'ringda dashtlar bog', sahrolar salqin,
 Sen, bu - ishq, ishq, bu - sen, ikkisi chin-da.
 Tengsizlikka tengdosh bo'lgan ey xalqim,
 Sening buyukliging - soddaligingda!..

Farmon bitilgan bitik bu - taqdir ekan,
 har ish bor,
 Bunda qancha mushkulotlar, qancha qayg'u,
 tashvish bor.
 Ko'k gumbazga sodiq erdim, sobiq uyim
 sog'indim,
 Zamin bag'ri ezilgaydir, ko'ksimda o'r'tanish
 bor.
 Abad shoir bo'lg'in-u, lek tuzalma zinhor
 degan,
 Peshonada oy-u yulduz o'yib yozgan qarq'ish
 bor...
 Xobim qochar, tobim qochar, chulg'ab olar
 iztirob,
 Tunlar she'rning dardi bilan oromlardan chalg'ish
 bor.
 Dunyo menga ko'zin tikkan, poylar har
 qadamimni,
 Ergashtirib ul tansoqchi soyam bilan daydish
 bor.
 Menga oson tutma sen ham bag'rim o'r'tab,
 ey Yulduz,
 Muqim, sobit ko'rinsam-da, ichimda bir
 darvesh bor...

Ko'z o'ngimda gir aylanar yer,
 Bir nuqtaga aylanar olam.
 Tikilaman so'zsiz nogahon,
 Shu nuqtaga joylanar olam.

Ko'zni yumib, qalbimni ochgum
 Va shu zahot ruhim yengillar.
 Kunlar isiy boshladi, lekin
 Sovimoqda otash ko'ngillar.

Sovuq so'zlar nishin sanchmoqda,
 Ilma-teshik bo'lar jon-jonim.
 Yurak allaqanday azobda,
 Iztirob-la o'tmoqda onim.

Ne tuyg'uga yo'liqdim, axir,
 Ich-ichimda olov qahraton.
 Kunlar isiy boshlagan sari
 Sovqotib ketyapman, onajon...

ISTIHOLA

Yuraginga boray deysan-u,
 Yuraginga yo'ling bormaydi.
 Tuyg'ularni qog'ozga o'rab,
 Beray deysan, qo'ling bormaydi.

Yozilmasdan qolar ishqnoma,
 Xomush qolar qo'lingda xoma.
 Seni juda yaxshi ko'raman,
 Degin kelar, tiling bormaydi.

Ajab, doim mag'rur shodmonsan,
 To'rt tomoni qibla insonsan.
 Sharq-u g'arbga yo'ling tushar-u,
 Qalbg'a o'ng-u so'ling bormaydi.

So'ramagin, bilib oldim-da,
 Ko'zlaringdan sezib qoldim-da...
 Degim kelar, ayto olmayman lek,
 Aytay desam ko'nglim bormaydi...

Hazrat Navoiy haykali poyida reportaj tayyorlayotib
she'r daftaramni unutilib qoldiribman... qaytib borib
olib kelay desam yomg'ir sharros quyib yubordi...

Navoiy poyida qoldi she'rilarim,
Balki, dastro'molin iymanib silkib
Navoiy poyida qoldi she'rilarim,
Xayolday entikib, shamolday hurkib.

Navoiy poyida qoldi sirlarim,
Ko'ksimdan to'kilgan siyohlar qoldi.
Kiprigim savalab Ko'k yomg'irlari,
Ortimdan ergashib nigohlar qoldi.

Navoiy poyida dunyo bo'ldi keng,
O'zini axtarar endi izlarim.
Navoiy poyidan mahkamroq tuting,
Ey, mening ortimda qolgan so'zlarim...

AVTOBUSDA

Yomg'ir isi kelar sokin, kech kuzda,

Salqin shabbodalar urilar yuzga,

O'zga bir olamni sezaman o'zda,

Avtobusda.

Ko'zlari suzilar allakimlarning,

Yo tinchi buzilar allakimlarning,

Sog'inchi sezilar yana kimlarning,

Avtobusda.

Hech kimni sog'inmay yasholsam qani,

Sog'inmay, og'rinmay yasholsam qani,

Bu o'ylar sohibi kabi bema'ni...

Avtobusda.

Shu hol ketsam edi bir mehrkonga,

Hech kim bilmaydigan olis makonga,

Meni sog'intirgan yurak tomonga...

Avtobusda...



OJIZ ISHQ

Hayotni sevadi yurak-yurakdan,

Dunyoni ko'rishni orzu qilari u.

Sezadi, kutadi, bir kun falakdan

Ko'zlariga hadya etilar yog'du.

Quyoshni, samoni, qushlarni o'ylar,

O'zicha tasvirlar tasavvurida.

Gohida halinchak uchgancha kuyilar,

Kimnidir o'ylaydi qalbi qo'rida.

G'urbatdan, zulmatdan, o'limdan qo'rqmas,

Shu hol yashashdan ham cho'chimas aslo.

Ammo ko'zlarini ko'rolmay o'tish,

Seni ko'rolmaslik... bundan mustasno!

Uning ko'ngli ochiq,

Sezar har ohing,

Negadir sen bunday bo'la olmayсан.

Yetti sayyorani ilg'ar nigohing,

Faqat ojiz ishqni ko'ra olmayсан...

ASKAR QIZ SEVGISI

Quyoshni qamashtirar
Yelkangizda juft yulduz.
Leytenant aka, sizga
Oshiq oddiy askar qiz.

Siz bilmaysiz, har kuni
Yo'lingizni poylar u.
Tog'day hijron yukini
Yuragiga joylar u.

Nigohlarin tashlaydi
Kipriklar orasidan.
Muhabbatin asraydi
Ko'zining qorasida.

Sizni qizg'onar rosa
Hamma-hammadan har dam.
Qizg'onadi, ayniqsa,
Leytenant opalardan.

Ko'zingiz tushsa nogoh
Sevinchdan yoriladi.
Xayolida sizga, oh,
O'zicha yor bo'ladi.

Ishq bong urmoqda, axir,
Sadosi sohir, baland.

Ko'nglingizni uyg'oting,
Uyqudagi leytenant.

Tokaygacha boqmaysiz,
Fursat o'tib boradi.
Qiz ham kutmaydi, shartta
Boshqaga tegvoradi...

Mayli, baribir baxtli
Bo'ling, leytenant aka.
Lekin topolmaysiz yor
Oddiy askar qizdaka.

Yelkangiz yulduzlarga
Deyman, iloho, to'lsin.
Yuragingizda esa
Faqat bir dona bo'lsin!..



YURAGIMGA

Ko'ngil ko'nolmay toldi,
 Ayriliqlar cho'g' oldi,
 Xayollarning yo'qoldi
 Tinch.

Hijronlar bo'lsin omon,
 Bir yaxshiga bir yomon,
 U yaxshidir yo yomon,
 Men-chi?

Yupanchilar berar sado,
 Diydorlar mehrgado,
 Yuborgay xat-xabar yo
 Elchi.

Yuragim, ketma yiroq,
 Yo'l ko'rsatib yorqinroq,
 Bir bor menga yaqinroq
 Kel-chi.

O'tkinchi onlar o'tdi,
 Saboday yelib xuddi,
 U-ku, mayli, unutdi...
 Sen-chi?..

(Dugonam Azizaning xotirasiga)

Ko'ksimda bir qaldirg'och,
 Qizg'aldog'im bor edi.
 Unga yor edi quvonch,
 Hamishabahor edi.

Bag'ri bo'lsa hamki qon,
 Yig'lamasdi, kulardi.
 Meni hammadan yaxshi,
 Hammadan ko'p bilardi.

O'sha kuni dod dedim,
 Osmon ko'ksim yanchildi.
 Ko'nglimning siniqlari
 Yuragimga sanchildi.

Azizajon, Aziza,
 Endi kim ovuntirar.
 Boqsam, har yon yodingni
 Eslatar, sog'intirar.

Firoqingga ko'milgan
 Dillar ko'kka sig'maydi.
 Sensiz qolgan chimildiq
 Yor-yor aytib yig'laydi...

YURAK

Maksim Gorkiyini o'qib

Oqib parvoz etib topgay u huzur,
U juda ham qaysar, juda ham mag'rur.
Chiqmoqdan cho'chimay, dovuldan qo'rqmay,
Ikki osmon aro uchib borar hur.
Yo'lto'sar shamollar chiqar nogahon,
To'liqlarni tinmay otadi har yon.
Faqat olg'a borar u shu damda ham,
O'zini qoyalardan otadi daryo.
Jini kuzatib turar keksa xarsanglar,
Go'yo sukut saqlab hammasin anglar.
Goh suvga sho'ng'iydi, goh ko'kka sapchir,
Bo'ron ichga sig'may qay yon alanglar...
Bu o'lis safardir - tugamas mangu,
Hamon halovat yo'q, hamon yo'q uyqu.
Keksim va ko'zlarim aro bo'ronlar...
Ikki osmon aro uchib borar U...

MAKTUB

Ketdim. Osmoningdan ketdim butunlay,
Bildim, yo'llar ayro, ko'ngillar ayro.
Ammo men, bilginki, seni bugunday
Doimo... doimo... doimo...
Faqat bahor, ko'klam tilayman senga,
Senga bormasin deb kuzga bosh urgum.
Faqat oq ko'nglingni berma hech kimga,
Yashirgin! Yashirgin! Yashirgin!..
Izimga, izingga qaytmasman endi,
Yonayotgan yurak
qolar ortimda.
Men ketgum, lekin sen ketmaysan mangu
Yodimdan. Yodimdan. Yodimdan.
Xayr, so'zi olov, nigohlari cho'g',
O'zingni asra, shu yolg'iz o'tinchim.
Mehr bilan
seni sog'inib...
yo'q-yo'q,
Unutib qolguvchimg...

BAHOR

Yangilanib bormoqda har kun,
Dil uyg'onib bormoqda takror.
Yurakka yaqinroq kel, yaqin,
Sog'inganman, azizim bahor.

Qalam tutar tanish tuyg'ular,
Hamroh etib ismsiz dardga.
Ular seni eslatar, ular
Talpinadi birinchi martga.

Sochlarimni o'ynab, o'raman,
Sukunat... va unda chin izhor:
Seni juda yaxshi ko'raman,
Uni yaxshi ko'rganday, bahor...

O'zgarib bormoqda bu olam,
Go'yo ayoz ketmoqda badar:
Kutilmoqda tashrifing bu dam
Ildizdan to yulduzga qadar.

Bir kuni kuz kelmog'i ayon,
Ko'ksiga to'ldirib sir-asror.
Meni tashlab ketma hech qachon,
Ko'zlarimda ko'z ochgan bahor...

Mening ham siz bilmas dunyolarim bor,
Ko'zimda yashirgan daryolarim bor.
Goh-nogoh keluvchi so'qmoqlar ichra
Yo'limni yoritar ziyolarim bor.

Ko'nglimni ko'ngilday izvoshim bilan,
Yormadim kimsaga qiz boshim bilan.
Ich-ichimni poklab ko'z yoshim bilan
Tonglar ufqqa boqqan qiyolarim bor.

Ko'ksimda cho'g' iz bor, ketmas, chandiqqay,
Qancha asror yotar yuraksandiqa,
Mening ham siz bilmas oshiq-ma'shuqday
Ro'yoblarim bordir, ro'yolarim bor.

Xushbaxt kuningizda ko'rinsin kulgum,
Meni eslatsinlar har taraf gulgun.
Yana qancha, bilmam, kun kelib bir kun
Sizni topib borar duolarim bor!..
Mening ham siz bilmas dunyolarim bor...

Qarog'imning ko'kida yulduz,
Tuproq'ida dil yig'lar biram.
Yuragimni beshik qilgan his
Uyg'otadi allasi bilan.

Ko'z yumgani qo'ymas bir dardki,
O'g'irlagan mening oromim.
Orom harom menga nahotki,
Nahot oromsizlik oromim?!

Dunyo ekan shunchalar mayib,
Mayda gap-so'zlardan tolmadi.
Ko'nglim Kavsariga yuz chayib,
Xiyonat qilmagan qolmadi.

Tabassumdan qilich tortar do'st,
Ichim qonar, ammo o'lmayman.
Ikki labim aro bitta so'z -
Kimga ilinishni bilmayman.

So'z ishqidan bir zum ortmasam,
Sira tinmas tarona bo'lgum.
Bu dunyodan qo'nim topmasam,
Ko'ngillarga ravona bo'lgum...

Ruhim yamoq, yoqa, yengsiz,
Zamin tor, koinot ensiz,
Men jonsizman, jonim mensiz,
Sensiz.

Qarog'larim ariq bo'ldi,
Bilganim ayriliq bo'ldi,
Ko'ksim to'la yoriq bo'ldi,
Sensiz.

Ko'nglimni anorday yordim,
Qayga bormay, Senga bordim,
Oyog'imdan chalar dardim,
Sensiz.

Sir pardasin tortib bo'lmas,
Yelkaga ham ortib bo'lmas,
Kuymoq bundan ortiq bo'lmas,
Sensiz.

Men zarrangman, Senga singgan,
Kiprikka yosh kabi ingan,
Tangrim, nimaman yo kimman
Sensiz?!

Qulog'imga o'zin osdi sirg'alar,
Yomg'irlarim yanog'imda sirg'alar.
Kiprigimni qayiq qilib suzdi so'ng
Ko'zlarimdan ko'nglim qadar sir va dard.

Ketay desa na ketishga imkon bor,
Qolay desa qolishga yo'q ixtiyor.
Yer-u samo aro dilgir yulduzga
Hech kelmasmi muhabbatning rahmi yo?

Chap ko'ksimda ishqim uyg'otib har zum,
Muhabbat oyatin aytar muazzin.
Sabr suralari yog'ar kaftimga,
Kapalakday jisimimda dardlar azim.

Qulog'imga o'zin osar sirg'alar,
Yomg'irlarim yanog'imda sirg'alar.
Kiprigimni qayiq qilib suzar so'ng
Ko'zlarimdan ko'nglim qadar sir va dard.

Ko'zmunchoqday qo'lda uzildi tasbeh,
Dur bo'lib yerlarga to'kilgan menman.
Qush kabi uchirib duolarimni,
Samoga umidvor tikilgan menman.

Kiprikka ingandim muhabbat bo'lib,
Olisga uchirdi sog'inch shamoli.
Tangrining muazzam poyida ishq deb,
Turgan ham o'zimmen, yiqilgan menman.

Muqimlik axtarib kezdim darbadar,
G'ayirlik ergashar shu holimga ham.
Arosat yonganda so'qmoq yo'llarda,
Ko'nglim Ka'basiga yukingan menman.

Qoqilib-qoqilib vafo yo'lida,
Goh pinhon, goh oshkor xiyonat topdim.
Tashqari dunyoga talpingan sarim,
Ichkari olamga chekingan menman...

NIDO

Yong'irni yor qildilar,
 Tomrimni dor qildilar.
 Ruhim tor-mor qildilar,
 Sirim alyor qildilar.
 Ko'nglimning odamlari
 Mehriга zor qildilar.

Ushoqday uvalandim,
 Goh ipday chuvalandim.
 Orim – shamsi balandim,
 Otashida qalandim.
 To'kildim yerdan ko'kka,
 Faqat Senga elandim.

Qiyin ekan bu hayot,
 O'yin ekan bu hayot.
 Ertaklarda barhayot
 O'yim ekan bu hayot.
 Ojizlikda kuchlangan
 Ko'yim ekan bu hayot.

Ko'ksimda gullar og'riq,
 Shifosi Ishqqa bog'liq.
 Tashqarida bir yoriq,
 Ichkarida ming yoriq.
 Bu qismatni U bitmish,
 Azal yozuvchi Xoliq.

Ortimda kuy yashasin,
 Doim suluv yashasin.
 Go'zal tuyg'u yashasin,
 Go'zal qayg'u yashasin.
 Men o'lsam ham bir kuni,
 Dardim mangu yashasin.
 Dardim mangu yashasin...



(*"Tafsiri Hilol"*ni o'qib)

Yaratgan ishqida hur
Asir bo'ldi yuragim.

Hovuchimda ichib nur,
Basir bo'ldi yuragim.

Loy qordim qalb ashkidan,
Muhabbatning ko'shkida,
Shu tuyg'uning g'ishtidan
Qasr bo'ldi yuragim.

Har ne tuyg'u bor nafis,
Ishqning oldida ojiz.
Kuylab tun-u kun hofiz,
Shoir bo'ldi yuragim.

So'nggi yo'q salovotga,
Samoviy xayolotga,
Oromsiz halovatga
Arzir bo'ldi yuragim.

Tangrim, suyganim sari,
So'zing tuyganim sari,
Ruhimdan qayg'u arib,
Uzilib qora bog'lar,
Tafsir bo'ldi yuragim.
Tafsir bo'ldi yuragim...

TUHLARIM

Tush ko'ribman, bir yorug'
Ishoratga yo'ydim men.
Neki bo'lsa Tangridan
Inoyatga yo'ydim men.

Yo'l yuribman olis yo'l,
Qo'limda kitob bilan.
Ko'zimni ochar-ochmay,
Hidoyatga yo'ydim men.

Tomirlarim gullaydi
Qalb suvidan sipqorib.
Ko'ksimda nihol ko'rsam,
Muhabbatga yo'ydim men.

Ko'nglim cho'kkani sari,
Ruhim uchar ko'klarda.
Parvozlarni samoviy
Saodatga yo'ydim men.

Goh qulf ko'rarman bir,
Zanglagan-u ochilgan.
Qalb ko'zlarim ochar sir -
Sinoatga yo'ydim men.

Tunlar Ishqin o'yladim,
Kunlar Ishqin o'yladim.

Ishqsiz kechgan onimni
Qiyomatga yo'ydim men.

Tushimda hamroh tasbeh,
O'ngimda dilxoh tasbeh.
Ro'yoni xush ro'yobga,
Tilovatga yo'ydim men.

Taftish aylab dil qa'rin,
Hikmat bildim ne ko'rsam.
Ey bor Xudoyo, barin
Ibodatga yo'ydim men.
Ibodatga yo'ydim men...

KO'NIKISH

(Alliteratsiya)

Ko'nikibam ketdi ko'nglim ko'ngilsiz
kimsalarga,
Kimsasiz ko'chalarga-yu, ko'rimsiz
ko'rmaklarga.
Kuzda ko'klam, ko'klamda kuz kurtakladi,
ko'nikdim,
Ko'milibam ketdi ko'nglim ko'zdagi
ko'lmaklarga...

MARSIYA

(Ustoz Abduvali Qutbiddin xotirasiga)

Bir tong otadi og'irdan og'ir,
Quyosh boqdi ma'yusdan ma'yus.
Ko'ngildan ko'zgacha chayqalur
Yulduz.

Na yer, na osmonga sig'maydi,
Yomg'irlar to'kilar sim-sim-ay.
Aytilmagan so'zlar yig'laydi
Tinmay.

Shoirni eslatar har yonda,
Muhabbatga chin mahliyolar.
Samarqandga oqar daryoday
Duolar.

Qishdan chiqar bo'ldilar beshak,
Beshikast, bedard-u beta'ma.
Bir shoir, bir oshiqdan bo'lak
Hamma...

Qahratonki goh titrab olar,
Yuraklarga ingan hovurdan.
Majnuntolday egilib borar
Qovurg'am.

"Yo Rab, bu ne savdo!" suyangum
Jon tomirim - ko'ngil sozima.
Har on yuragimda yig'lar jim
Osima...

TUYUQ MASHQLARI

Qaro tunda oq qog'ozni qarolab ash'or
yozarman,
Sukunat-la suhbatlashib, unga bor ko'nglim
yozarman.
Hayot ummonida oqqum ham beorom, ham
beorom,
Bilmam bunda na erurman, yo sas, yo bir xas,
yo zarman...

Kunida sinmasa edi ko'za gar,
Tuproqqa singmasa edi ko'z agar.
Yerdan uzilardi odam oyog'i
Va aziz bo'lmasdi usta ko'zagar.

Ko'za yasolmagan kulol kulolmas,
Zavqi o't olar-u, ammo kul olmas.
Bir ko'za oshig'in bilaman - mangu
Kuldira olar-u, o'zi kulolmas...

YONDAFTAR

Yonimdan hech yiroq ketma, yondaftar,
Yuragimga mudom bosgin yon, daftar.
Ash'or bo'lib to'kilgayman ko'ksingga,
So'z o'tidan sen ham mendek yon, daftar.

Soylar kechdim, osmono'par dovon kechdim,
Loylar kechdim, ammo sendan yolg'on kechdim.
Sening ismingsiz so'zlagan onim borki,
Kunduzlarim xira bo'ldi nogoh, kech dim.

OLMAGA

Anhor eltsin, olislarga bir oq dedim,
Yo'llar turfa, birda sariq, bir oq dedim.
O'jar olma, ko'nmay-ko'nmay oqib ketdi,
Hech na demam degan edim, biroq dedim.

Senga mehrim ko'rmana,
Yuragimni ko'r, mana.
Yaxshi ko'rmay o'lay men,
Qanchalar ham ko'rman-a...

Ki ishqim ham, sirishkim ham shul yurakda
yoshirindur,
Bilmam ta'min bu dard birla hayot zardob, yo
shirindur.
Siriga boy bo'ldim chunon, sirini boy bermadim
lek,
Bo'yla ahdni meros etgan yo Laylidur, yo
Shirindur.

Ey muhabbat, bilasanmi o'zing tuzgan
tenglamani,
Duchlatding-ku o'y-xayoli noma'lumga
tenglamani.
Agar yechim topolmasang o'rtadagi bu
jumboqqa,
Mayli, unda cheksizlikka, tengsizlikka
tengla mani.

Muhabbat ilohiy olovnish, o'tmish,
Kimdir aytar bu his bir kuni o'tmish.
Bo'lsa hamroh bo'lsin yurakka abad,
Bo'lmasa bo'lmasin yarimta o'tmish.

Ko'ngil bog'i bahor kelmay gullab berar,
Goh shabnamga, goho nurga gul lab berar.
Yuragingni ko'zlaringga yashirmagil,
Sirlaringni sabolarga "gullab" berar.

Layli hargiz bir bo'saga yuz bermaydi,
Bir bermaydi, o'n bermaydi, yuz bermaydi.
Majnun uchun hanuz yorning visoli baxt,
Ming yildirki, aning baxti yuz bermaydi...

Qadahlarda maqtar billur rangin may,
Sarxush aylar kamalakday rangin may.
Bahordan ko'nglin uzolmay bir oshiq
Zardob yutar, yuzlariga rang inmay...

Hayot qonunlari ichra hajr degan qonundan
Qutulmadim, yaralganmi irmoqdagi qon undan.
Yetmish ikki tomirimday yonar yetmish ikki tor,
Hijron cho'g'i sachrar goh-goh kuy taralsa qonun'dan.

Ruhim aytar, man yengil goh, man zil goh,
Goh zaminda, samovotda manzil goh.
Qo'nimsizman, tinimsizman, tinimsiz,
Topgunimcha yuraklardan manzilgoh.

¹ Yetmish ikki torli cho'lgu asbobi.

Tok qonin ichgan oshiqdir ul mayib,
Ul mayibmas, asli ishqdan dil mayib.
Hamma yig'lab ketar foniylar dunyoda,
Umar Xayyom kezib yurar jilmayib.

CHISTON MASHQLARI

Oshiqning ko'ziday olovga makon ko'ksi,
Og'zin ochganicha hayron turar devona aksi.
To'lin oyday ko'ngliga qo'l salsam gar banogoh,
O't qalasang tovlanar bag'rida cho'g'lar raqsi.
(Tandir)

Marvaridlar shodasi bitta ipga tizilgan,
Shoda tomri zamindan ko'kka qadar cho'zilgan.
Qonin ichib shoirlar shoir bo'ldi devona,
Yo'qdir olamda ko'ngil undan ko'ngil uzilgan.
(Tok)

Boqsam, ohining tutuni osmon qadar o'rlaydi,
Ko'ksi to'la bo'lsa hamki ko'ngil go'yo to'lmaydi.
Nam o'tinday achchiq yonishlarga to'ldi bag'ri xo'p,
Joni yo'q deb inson uni har o'y bilan xo'rlaydi...
(O'choq)

Hech kim barobar mas besh qo'ldek, ayon,
Jismim saroyida besh qo'ldek a'yon.
Ko'nglim podshohimdir, o'yim choparim,
Mening ham qulligim besh qo'ldek ayon.

Manglayga bitilmish bu ko'hna qadar,
Kim qayon ne ilinj nigohin qadar.
Ilm bilan, solih amallar bilan
Qadar davom etar qiyomat qadar.

Tan bir saroy, ishq turadi mehrobida,
Ko'ksim minor, dil muazzin, mehr obida.
Sayyoh o'ylar va darbadar ruhim mani
Poklanadi, poklanadi mehr obida.

Dunyo yaralgandan dardga chalinmish,
Ravon yo'lda hamki nogoh chalinmish.
Qadamin tezlatmish ki qulog'iga,
Manzil yaqin, degan sado chalinmish.

XAYYOMGA IKKI TO'RTLİK

Ko'ngli yo'qqa nogoh ko'ngil oldirmay
Oshiq o'lsin, undan ko'ngil oldir, may!
Maykosada ishq Xayyom yonadur:
Kumushdir may, olovdir may, oldir may.

MUNDARIJA

Iqbol Mirzo. Shoirlik qismati.....	3
Bag'ishlov.....	5
Yer haqida she'r.....	7
"Mangu samolarga qanot yo'yguvchi...".....	8
Toshkent.....	9
Orol dengiziga.....	10
Bir bahorki.....	11
Tog'.....	12
"Avtobusning tiniq oynasi...".....	14
O'chirg'ich.....	15
Sog'inch.....	17
Turnalar.....	18
Yong'ir.....	19
U menmidim, u senmiding?.....	20
"Ishq bog'i degan jannat...".....	21
"Tong, bu - sen, sen, bu - tong, munis va yorqin...".....	22
"Farmon bitilgan bitik bu...".....	23
Ko'z o'ngimda gir aylanan yer.....	24
Istihola.....	25
Taskin.....	26
"Navoiy poyida qoldi she'rilarim...".....	27
Avtobusda.....	28
Ojiz ishq.....	29
Askar qiz sevgisi.....	30
Yuragimga.....	32
Ko'ksimda bir qaldirg'och.....	33
Yurak.....	34
Maktub.....	35
Bahor.....	36

"Mening ham siz bilmas dunyolarim bor...".....	37
"Qarog'imning ko'kida yulduz...".....	38
"Ruhim yamoq, yoqa, yengsiz...".....	39
"Qulog'imga o'zin osdi sirg'alar...".....	40
"Ko'zmunchoqday qo'lda uzildi tasbeh...".....	41
Nido.....	42
"Yaratgan ishqida hur...".....	44
Tushlarim.....	45
Ko'nikish.....	46
Marsiya.....	47
Tuyuuq mashqlari.....	48
Chiston mashqlari.....	53

1.289.500.

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

O' 80

O' 80 O'rmonova, Yulduz.

Uyg'oq yulduzlar [matn]: she'rlar / Y.O'rmonova.
– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 64 b.

Adabiy-badiiy nashr

Yulduz O'RMONOVA

UYG'OQ YULDUZLAR

She'rlar

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahhih: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90¹/₃₂

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №345.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



YULDUZ O'RMONOVA
UGC'OQYULDUZLAR

Yulduz O'rmonova 1995-yil
2-avgustda Andijon viloyati
Xo'jaobod tumanida tug'ilgan. Zulfiya
nomidagi Davlat mukofoti sohibasi
(2011). O'zbekiston Davlat Jahon
tillari universitetining Ingliz tili
filologiyasi yo'nalishini tamomlagan
(2018). Ilmiy maqolalari, tarjimalari
hamda she'rlari Saudiya Arabistoni,
Hindiston, Ispaniya va AQSH
matbuotida bir necha bor nashr
etilgan. Prezident stipendiyasi
sovrindori (2019). Hozirda
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti Oliy
jurnalistika kursi II bosqich
magistranti.

"ADAABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6473-2-9



9 789943 647329